Qurilgan organik mevalar eksportini rivojlantirishda yashil marketing strategiyalaridan foydalanish.....	764
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari.....	769
Ernazarov Gulam Bekbayevich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsion faoliyatni baholash va rivojlantirish mexanizmlari.....	774
Mavrolov Ravshan Nematjonovich	
Barqaror rivojlanish va korxonalarda barqarorlikni ta'minlash zaruriyati.....	780
Yakubova Dilfuza	
Yashil iqtisodiyot sharoitlarida barqaror rivojlanish, yashil texnologiyalar va ekologik menejmentning o'rni	785
Dilmurodov Abbas Anvar o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasi faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish	788
Tuxtamishev Shodimurod Qurbonboyevich	
Tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirish.....	795
Axmedov G'ofurjon G'ulomjonovich	
Turizm sohasini ekonometrik modellashda qo'llaniladigan ekonometrik usullar va amaliy imkoniyatlar	801
Shukurov Ikrom Abdurashitovich	
Sanoat tarmoqlarida investitsiyalar strukturasining iqtisodiy samaradorligi va innovatsiyalarni rag'batlantirish.....	807
Xikmatillayeva Dildora Shavkat qizi	
Mintaqa ziyorat turizmi samaradorligini oshirishda ekonometrik modellardan foydalanish.....	812
O'rinova Durdona Botir qizi	
Kichik biznes rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni pest (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, texnologik omillar) tahlili.....	816
Israilov Rustam Ibragimovich	
Qazib olish sanoati korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirishda muammolar va salbiy omillar: tahlil va zamonaviy yondashuvlar	825
Abduraxmanov Davron Burxanjonovich	
O'zbekistonning milliy merosi boyliklaridan turizmga foydalanish yo'llari	830
Samarov Xonqul Qahhorovich	
Iqtisodiy rivojlanish jarayonida investision resurslarning mutanosib taqsimlanishi: samaradorlik va ustuvor yo'nalishlar	835
Otaboyev Feruzbek Oybek o'g'li	
Iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy o'sishni indikativ baholash metodologiyasi.....	841
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	



Bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish istiqbollari.....	847
Pardayev To'liqin Nasirovich, Farxodov Farrux Furqatovich, Nomozov Abduvoxid bdurazzoq o'g'li	



BOJXONA XIZMATI FISKAL FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Pardayev To'liqin Nasirovich

Bojxona qo'mitasi bojxona instituti
Professori, iqtisod fanlari doktori
Email: tulkinpardayev65@mail.ru

Farxodov Farrux Furqatovich

Bojxona qo'mitasi bojxona instituti
Email: farrux.farxodov@gmail.com

Nomozov Abduvohid Abdurazzoq o'g'li

Bojxona qo'mitasi bojxona instituti mustaqil tadqiqotchisi
Email: nomozovabduvohid@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada fiskal barqarorlikni ta'minlashda bojxona to'lovlarining o'рни va mohiyati yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosini tartibga solishda qo'llaniladigan bojxona to'lovlari tahlil qilingan. Mamlakat fiskal barqarorligini ta'minlashda bojxona to'lovlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: fiskal barqarorlik, bojxona to'lovlari, tashqi savdo, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona to'lovlari stavkalari, davlat budjeti, tashqi iqtisodiy faoliyat, sun'iy intellekt.

Abstract: The role and essence of customs payments in ensuring fiscal stability is revealed in the article. Customs fees used in the regulation of foreign trade of the Republic of Uzbekistan are analyzed. Scientifically based proposals and recommendations aimed at increasing the efficiency of the use of customs fees in ensuring the fiscal stability of the country have been given.

Key words: fiscal stability, customs duties, foreign trade, value-added tax and excise tax, customs duty rates, state budget, foreign economic activity, artificial intelligence.

Аннотация: В статье раскрыты роль и сущность таможенных платежей в обеспечении фискальной стабильности государства. Проанализированы таможенных платежей, используемые при регулировании внешней торговли Республики Узбекистан. Даны научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности использования таможенных платежей в обеспечении фискальной стабильности страны.

Ключевые слова: таможенные платежи, внешняя торговля, налог на добавленную стоимость и акциз, ставки таможенных платежей, государственный бюджет, внешнеэкономическая деятельность, искусственный интеллект.

KIRISH

Jahon miqyosida iqtisodiy integratsiya jarayonlari kengayib, xalqaro savdo ko'lamlari o'sishi bilan birga bojxona tizimining ahamiyati yanada ortib bormoqda. U nafaqat davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni tartibga solishda, balki milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda ham strategik omil sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, bojxona organlarining fiskal funksiyalari — bojxona to'lovlari, soliqlar va yig'ímlarni undirish orqali davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bojxona to'lovlari mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, tashqi savdo operatsiyalarini samarali nazorat qilish va noqonuniy iqtisodiy faoliyatlarga qarshi kurashishda muhim vosita hisoblanadi.

Hozirgi global iqtisodiy jarayonlarda bojxona organlarining fiskal faoliyati, jumladan, bojxona to'lovlarini undirish mexanizmlarini takomillashtirish va ularni davlat budjetiga samarali yo'naltirish masalalari bo'yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bojxona to'lovlarining yig'ilishi, ularning davlat budjetiga o'tkazilishi va tahlil samaradorligi ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy



yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, bojxona to'lovlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi mamlakat iqtisodiy barqarorligini hamda fiskal siyosatning samaradorligini ifodalovchi mezon hisoblanadi. Shu bois bojxona xizmatining fiskal faoliyatini takomillashtirish dolzarb masala bo'lib, uning samarali tashkil etilishi milliy iqtisodiy xavfsizlikni kuchaytirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijadorligini oshirish, davlat va jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish, iqtisodiyotni zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ulushini qisqartirish hamda tarkibiy islohotlarni jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil davom ettirilmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son'li Farmonida mamlakatning 2030-yilgacha rivojlanish yo'nalishlari, ustuvor maqsadlari va ularning bajarilishini baholash mezonlari aniq belgilab berilgan. Unda 46-maqsad — "Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish" yo'nalishida quyidagilar belgilangan: 2030-yilda samaradorlik ko'rsatkichi sifatida konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foizdan va kelgusi yillarda 3 foizdan past bo'lgan miqdorda bo'lishini ta'minlash [1]. Ushbu taraqqiyot strategiyasida qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, bojxona to'lovlarini undirish mexanizmlarini tadqiq etish va ularning yig'iluvchanligini oshirish bo'yicha xulosa hamda takliflar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasida bojxona xizmatining fiskal faoliyatini takomillashtirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bojxona organlarining fiskal vazifalarni samarali amalga oshirishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida bojxona-tarif siyosatini isloh qilish, bojxona to'lovlarini undirish mexanizmlarini xalqaro mezonlar asosida muvofiqlashtirish, tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda tarif stavkalarini optimallashtirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, fiskal faoliyat samaradorligini oshirish va ma'muriy jarayonlarni yengillashtirish dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Shu bilan birga, bojxona organlarining fiskal funksiyalarini amalga oshirish jarayonida Jahon savdo tashkiloti, Jahon bojxona tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalarning standartlari hamda tavsiyalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha mamlakatimizda tizimli islohotlar olib borilmoqda. Bojxona to'lovlarini to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida undirish, bu jarayonlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, bojxona xizmatining fiskal faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish, ularning uslubi jihatlarini asoslash hamda amaliy natijalarini baholash masalalari ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda bojxona xizmatining fiskal faoliyatini takomillashtirish hamda uni xalqaro prinsiplar, normalar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida optimallashtirib borish global iqtisodiy integratsiya jarayonlarining yanada chuqurlashishiga zamin yaratadi. Shu bois bojxona organlari fiskal funksiyalarini samarali tashkil etish masalasi xalqaro ilmiy izlanishlarda ham dolzarb yo'nalish sifatida keng yoritilgan. Turli mamlakat olimlari bojxona xizmatining fiskal faoliyati yuzasidan tadqiqotlar olib borib, ushbu sohada ilmiy-nazariy yondashuvlar va amaliy tavsiyalarni ilgari surgan. Jumladan:

A. Drozdek bojxona ma'muriyatlarining fiskal va nazorat funksiyalarini tahlil qilib, "Bojxona organlari soliq va boj yig'imi orqali davlat budjetining barqaror manbasini ta'minlaydi va ular mamlakat iqtisodiy xavfsizligini muhofaza qiladi" deb fikr bildirgan [2].

K. Vogel, "Bojxona to'lovlari fiskal funksiyaning asosiy ko'rinishi bo'lib, davlatning iqtisodiy mustaqilligi va budjetni to'ldirish uchun muhim vositadir. Bojxona organlari faqatgina daromad to'plovchi emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik tuzilmadir" deb o'z fikrlarini bayon etgan [3].

B. Kormich, "Bojxona organlarining fiskal funksiyasi – nafaqat daromad yig'ish, balki tashqi savdo oqimlarini nazorat qilish va milliy bozorni tashqi iqtisodiy ta'sirlardan himoya qilishdir" deb o'z tadqiqot ishida ko'rsatib o'tgan [4].

I. Kezichev, "Bojxona organlarining fiskal funksiyasi – bojxona to'lovlari orqali davlat budjeti daromad qismini shakllantirishda bojxona organlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida" deb ta'riflaydi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda Bojxona xizmati fiskal faoliyati mavzusidagi ilmiy va amaliy adabiyotlar, shu jumladan O'zbekistondagi va xorijiy mualliflarning ishlari o'rganildi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. Bojxona qo'mitasining so'nggi 7 yillik bojxona to'lovlari bo'yicha statistik ma'lumotlari tahlilidan foydalanildi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



TAHLIL VA NATIJALAR


Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash jarayonida bojxona xizmatining fiskal vazifalari muhim strategik ahamiyatga ega. Bojxona organlari fiskal faoliyatni amalga oshirish orqali milliy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga va davlat budjetining daromad bazasini kengaytirishga xizmat qiladi. Iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bojxona xizmatining fiskal faoliyati davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutishi ta'kidlangan.

Ushbu nuqtayi nazardan kelib chiqib, bojxona organlarining fiskal funksiyasini mazmun-mohiyatini yanada aniqlashtirish zarurati tug'iladi. Bizningcha, bojxona organlarining fiskal funksiyasi — bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tishda bojxona organlari tomonidan undiriladigan, qonunchilikda belgilangan bojxona boji, soliqlar va bojxona yig'imlarini undirish bilan bog'liq vazifalari yig'indisidir, deb ta'rif berish maqsadga muvofiq.

Bojxona organlari fiskal faoliyatni olib borish orqali bojxona chegaralari orqali harakatlanadigan tovarlarga belgilangan majburiy to'lovlarni — bojxona boji, aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i hamda turli yig'imlarni aniq hisoblash, ularni o'z vaqtida undirish va davlat budjetiga yo'naltirish kabi vazifalarni bajaradi.


Yangi O'zbekiston sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va global iqtisodiy integratsiya jarayonlarida mamlakatning munosib o'rnini belgilashda bojxona to'lovlari muhim moliyaviy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Mazkur jarayonlar, o'z navbatida, davlatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash va milliy iqtisodiyotning uzluksiz rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

So'nggi yillarda davlat budjeti daromadlari tarkibida bojxona to'lovlarining ulushi izchil oshib borayotgani kuzatilmoqda. Agar 2018-yilda mazkur ko'rsatkich 14,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda u 23,3 foizga yetgani bojxona xizmatining fiskal funksiyasi davlat moliyaviy barqarorligida tobora muhim ahamiyat kasb etayotganidan dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. Bojxona to'lovlarining davlat budjeti daromadlari qismidagi ulushi (foizda)²

So'nggi yetti yillik statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, davlat budjeti daromadlari tarkibida bojxona to'lovlari ulushi 2018–2024-yillar davomida 8,8 foizga o'sgan. Bu holat davlat budjetiga yo'naltirilayotgan bojxona to'lovlari hajmi izchil ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar va soddalashtirilgan ma'muriy tartib-taomillar natijasida ushbu davr mobaynida undirilgan bojxona to'lovlari miqdori 5,5 martaga ko'paygan (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan 2018-2024-yillarda Davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari o'sish dinamikasi (trln. so'mda)³


² Manba: Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

³ Manba: Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



2024-yil yakuni bo'yicha bojxona organlari tomonidan jami 115,7 trln. so'm (100%) miqdorida bojxona to'lovlari hisoblangan. Ushbu mablag'ning 63,1 trln. so'mi yoki 54,5 foizi davlat budjetiga o'tkazilgan bo'lsa, qolgan 52,6 trln. so'm (45,5%) bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlarga to'g'ri kelgan.

Mamlakatimizda raqobatbardosh ishlab chiqarishni rag'batlantirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda ichki bozorni sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlash maqsadida bojxona to'lovlaridan imtiyozlar beriladi. 2018-yilda bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlar (80,9%) davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari (19,1%) hajmidan ancha ko'p qismini tashkil qilganini va 2024-yilga kelib esa hisoblangan bojxona to'lovlari tarkibida davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari hajmi sezilarli oshganini quyidagi rasmda ko'rish mumkin (3-rasm).



3-rasm. 2018-2024-yillarda hisoblangan, berilgan imtiyoz va davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari tahlili⁴

Bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlarni tahlil qiladigan bo'lsak, bojxona imtiyozlari bojxona organlarining fiskal siyosatga bog'liq ravishda o'zgarib boryapti. Bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlarning qisqarishi bojxona to'lovlarining oshishiga olib kelmoqda.

Bojxona to'lovlarini o'sishiga asosiy omillar sifatida import tovarlarining hajmini ko'payishi, imtiyozlarning qisqarishi, tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashning takomillashishi, bojxona to'lovlari stavkalarining o'zgarishi, valyuta kursining o'zgarishi, bojxona sohasida avtomatlashtirilgan axborot tizimidan samarali foydalanish, tovarlarning kelib chiqish davlatini aniqlash, tovarning TIF TN kodi kabi omillar ta'sir etgan.

Bojxona tartib-taomillari so'nggi yillarda jahon standartlari asosida takomillashtirilib, soddalashtirib borilishi tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona nazorati zaruriyatini yanada oshirmoqda. Shu maqsadda Bojxona qo'mitasi tuzilmasiga tegishli o'zgartirishlar kiritilib, bojxona auditi faoliyati doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bojxona qo'mitasi hamda hududiy boshqarmalarda mazkur yo'nalish bo'yicha ishchi guruhlar tuzilib, rasmiylashtiruvdan keyingi nazorat ishlari kuchaytirildi. Natijada 2024-yilda davlat budjetiga qo'shimcha undirilgan bojxona to'lovlari 2022-yilga nisbatan qariyb 3 barobarga ortdi (1-jadval).

1 jadval. 2024-yilda Bojxona organlari tomonidan aniqlanib, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini kelib chiqishining tahlili to'g'risida ma'lumot

T/r	Yo'nalishlar	Kelib chiqish sabablarining soni, dona	Undirilgan bojxona to'lovlari miqdori, foizda
1	Bojxona to'lovlaridan beriladiga imtiyozlar	14	31,1
2	Bojxona qiymatini aniqlash	31	25,9
3	Tovarning TIF TN kodi	8	15,4
4	Tovarning kelib chiqish davlatini aniqlash	15	3,4
5	Boshqalar	13	25,2
Jami		81	100,0

Manba: Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil davomida Bojxona organlari tomonidan aniqlanib, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari asosan bir necha yo'nalishlar bilan bog'liq holda shakllangan. Jami 81 ta holat qayd etilgan bo'lib, ularning katta qismi bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlarga to'g'ri keladi. Xususan, mazkur yo'nalish bo'yicha 14 ta holat aniqlangan va u umumiy hajmning 31,1 foizini tashkil etadi.

⁴ Manba: Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



Shuningdek, bojxona qiymatini aniqlash jarayonidagi kamchiliklar 31 ta holatni tashkil etib, 25,9 foiz ulushga ega. Tovarining tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) kodiga oid masalalar bo'yicha 8 ta holat aniqlangan bo'lib, ularning ulushi 15,4 foizni tashkil etgan. Tovarining kelib chiqish davlatini aniqlash bilan bog'liq 15 ta holat qayd etilgan va bu umumiy hajmning 3,4 foiziga teng. Shuningdek, boshqa turdagi holatlar 13 ta bo'lib, ularning umumiy ulushi 25,2 foizni tashkil etgan.

Umuman olganda, tahlil natijalariga ko'ra, bojxona to'lovlarini to'liq va to'g'ri undirish jarayonida imtiyozlardan foydalanish va bojxona qiymatini aniqlash masalalari eng katta ulushni tashkil etgani ko'rinib turibdi. Bu esa bojxona organlari tomonidan ushbu yo'nalishlarda nazoratni kuchaytirish va huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, bojxona xizmatining fiskal faoliyatini ilg'or xorijiy tajribalar hamda xalqaro prinsip va normalarni hisobga olgan holda optimallashtirish va uning undirish mexanizmlarini takomillashtirib borish milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, mazkur jarayon iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga hamda mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga yanada yaqinlashishiga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan xulosalar va rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalaridan kelib chiqib, iqtisodiy integratsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan sharoitda bojxona organlari fiskal faoliyati tizimini istiqbolda yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

O'zbekiston Respublikasiga import qilingan tovarlar tarkibida Xitoydan import qilingan tovarlar 31,3 foizni va Koreya Respublikasidan import qilingan tovarlar 4,5 foizni tashkil etgan (2025-yil 6 oyida). Ushbu davlatlar bilan ikki tomonlama muzokaralar o'tkazib, tashqi savdo bojxona statistikasi ma'lumotlarini almashish tizimini yo'lga qo'yish taklif etiladi. Bu esa tovarlar importi ko'rsatkichlari haqqoniyligini yanada oshiradi, bojxona qiymatini aniqlash va tovarlar miqdorini aniqlashni takomillashtirish imkoniyatini oshirib, bojxona to'lovlari tushumini oshishiga olib keladi;

Bojxona to'lovlaridan imtiyoz berish tartibini bosqichma-bosqich bekor qilish va barcha tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga bir xil imkoniyatni taqdim etuvchi tarif kvotasini amaliyotga kiritish tavsiya etiladi;

Tashqi savdoni tartibga solishda alohida (maxsus, antidemping va kompensatsiya) hamda mavsumiy bojxona bojlarini qo'llash davlat budjeti daromadlarini ko'paytirishga olib keladi;

Bojxona to'lovlarini hisoblash, undirish va ulardan berilayotgan imtiyozlarni qo'llash bo'yicha sun'iy intellektidan foydalanishni yanada kengaytirish taklif etiladi. Bunda bojxona organlari fiskal faoliyati tizimiga sun'iy intellektni bosqichma-bosqich va uning yo'nalishlari bo'yicha joriy etishi tavsiya etiladi: birinchi navbatda tovarlar kodlarini sun'iy intellekt asosida tekshirish, ikkinchi navbatda tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashda sun'iy intellektidan foydalanish, uchinchi navbatda tovarlarni kelib chiqish mamlakatini sun'iy intellekt asosida tekshirish, to'rtinchi navbatda bojxona to'lovlaridan imtiyoz berishda sun'iy intellektidan foydalanish. Bu bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtirib, unga ketadigan sarf-xarajatni qisqartiradi va vaqt sarfini kamaytiradi.

Yuqoridagi tahlil va xulosalardan kelib chiqib aytish mumkinki, bojxona to'lovlarini hisoblash, ularni undirish hamda mavjud imtiyozlar tartibini takomillashtirish yo'nalishida bojxona xizmatining fiskal faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarga zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur chora-tadbirlar bojxona to'lovlarining yig'iluvchanligini yanada oshirishga xizmat qilib, istiqbolda mamlakatning fiskal barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги "Ўзбекистон - 2030" стратегияси тўғрисидаги ПФ-158-сонли Фармони.
2. Drozdek, A. (2015). Fiscal and control function of customs administration with respect to the collection of customs and tax duties. Scientific Journal of Bielsko-Biala School of Finance and Law, 6(1), 32–58. <https://asej.eu/index.php/asej/article/view/511>
3. Vogel K. Introduction to the Law of Double Taxation for Customs Duties, Oxford University Press, 2012.
4. Kormych B. Development of the EU Customs Law: Between Integration and Sovereignty, 2020.
5. Kezychev, I. (2020). Analysis of the execution by the customs authorities of the fiscal function in 2016–2019. Theory and Practice of Modern Science. <https://sciup.org/140275288>
6. Paradaev, T. N., & Farkhodov, F. F. (2024). Божхона тўловларини ҳисоблаш, ундириш ва давлат бюджетига ўтказишнинг айрим масалалари. Economics and Innovative Technologies, 12(4), 115-123.
7. Фарходов, Ф. Ф. Иқтисодий интеграциянинг чуқурлашуви шaroитида божхона тўловларини қўллашни оптималлаштириш йўллари Тўлқин Насирович ПАРДАЕВ.
8. Пардаев Т. Ўзбекистонда давлат бюджети даромадларини шакллантиришда божхона тўловларини ундириш механизмини такомиллаштириш: Монография. – Тошкент: Божхона институти, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>